

1 Berilgan qaysi so`zlarda so`zning ma'noli qismlari tartibi odatdagi tartibda joylashmagan? 1) oshirma (sifat); 2) isitma (fe'l); 3) yeyishli (sifat); 4) yoqilg`i; 5) qaynatma (fe'l); 6) qizg`anchiq; 7) suyanchiq

- 2, 3, 4, 5, 6
- 1, 3, 4, 6, 7
- 1, 3, 4, 7
- 2, 5, 6

2 Quyidagi so`zlar qatorida nechta yasama ravish bor? **hamisha, dastlabki, ustma-ust, galma-gal, misqollab, do`stlarcha, nari-beri, qasdma-qasd, butunlay, tiriklayin**

- 7 ta
- 6 ta
- 8 ta
- 9 ta

3 Sanodin o`zga nav atlas to`quyin, Qish o`rtada bahoriyot o`quyin. Kim ujmoh tur sening bazming binosi, Hamisha yoz erur, jannat havosi. Ushbu misralarda qaysi ijodkor qaysi hukmdorga atab mubolag`aviy tasvirlar yaratdi?

- Xorazmiy Muhammad Xo`jabekka
- Xo`jandiy Mahmudxonga
- Rabg`uziy Nosiriddin To`qbug`aga
- Sayfi Saroyi Batxasbekka

4 Bolalikdan boshlangan do`stlik insonning keyingi ulg`aygan va kamolga erishgan davrida orttirgan barcha do`stlari orasida alohida ahamiyatga ega. Gapdag'i yasama soz'lar qaysi turkumlarga oidligini aniqlang. 1) ot; 2) sifat; 3) fe'l; 4) ravish

- 1, 2, 3
- 1, 3, 4
- 1, 2, 4
- 1, 2, 3, 4

5 Ohkim, bo`ldi subhi nashotim shomi g`am, Chehra pinhon etti ul Xurshidi tobon oqibat. Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni toping.

- tarse'

takrir

tazod

ruju

6 *Beg ati bilig birla bag`lig` turur, Bilig “lam”(i) ketsa, beg ati qalur.* Ushbu misralar qaysi ijodkor qalamiga mansub, qanday she’riy san’at qo’llangan?

Yusuf Xos Hojib, tashbeh

Yusuf Xos Hojib, harfiy san’at

Ahmad Yugnakiy, tashbeh

Ahmad Yugnakiy, harfiy san’at

7 Alisher Navoiy qaysi ijodkorga “... bir necha matla’lari borkim, tab' ahli (nozik didli adabiyotchilar) qoshida o`qusa, bo‘lur”, deya yuqori baho bergen?

Lutfiy

Husayn Boyqaro

Jomiy

Atoiy

8 *Odamlarning ma'naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish, har bir fuqaroning uni yoshidan qat'i nazar, shu maydonni qatnashchisiga aylantirish bizni eng samarali yo`limizdir.* Berilgan gapdagи kelishiklar bilan bog`liq uslubiy xatolarni tuzatib, gapdagи vositasiz to`ldiruvchilar miqdorini aniqlang.

4 ta

2 ta

1 ta

3 ta

9 **Qizil poyandoz to`shalgan keng xonaga kirishgach, to`rga yotqizib qo`yilgan bemorga yaqin borishdi, bir ayol bemorning og`ziga suv tomizib turardi.** Ushbu gapda necha o`rinda ko`makchi fe'l qo'llangan?

1

2

3

ko`makchi fe'l qo`llanmagan

10 Berilgan gaplarning nechtasida imloviy xatolikka yo`l qo`yilgan so`z(lar) uchraydi? 1) Haq yo`linda kim sanga bir harf o`qutmish ranch ila, Aylamak bo`lmas ado oning haqin yuz ganch ila. 2) Ikki dugona mayizni bir qisimdan bolalarga ulashib chiqdi. 3) Uyishiq bo`laklar sanash ohangi bilan aytildi. 4) U avvaliga bir oz hayajonlandi-yu, ammo keyin ravon gapira boshladi.

uchtasida

to`rttasida

bittasida

ikkitasida

11 Bosh gapi egasi noma'lum gap bo`lgan ergashgan qo'shma gapni aniqlang.

Odamning shunday do'stlari bo`ladiki, ularning har biri bilan fe'liga qarab gaplashishga to`g'ri keladi.

Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlashmasa, aybni o`zingizdan qidiring.

Dushman oz deb g`ofil bo`lmaslik kerak, chunki ko`p o'tinni ozgina o't kuydiradi.

Har kishi el uchun topsa agar ranj, Oqibat tuyassar bo`lar unga ganj.

12 Qaysi javobda quyida berilgan gapdagi juft so`zlarning sintaktik vazifasi to`gri ko`rsatilgan? **Yakshanba kuni birin-ketin o`g'il-qiz, nevara-kelinlar yig`ila boshlashdi.**

ega, aniqlovchi

to`ldiruvchi, ega

hol, ega

faqat ega

13 "Bolgar qo`sishlari", "Charos" nomli to`plamlar muallifi kim?

Mirmuhsin

O`lmas Umarbekov

Xayriddin Saloh

Mirkarim Osim

14 **Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo`liga olar, suyar va yuzlarini, sochlarni silab qo`yar edi.** Ushbu gapda qaysi gap bo`laklari uyushgan?

- payt holi, vositali to`ldiruvchi, kesim
- vositali va vositasiz to`ldiruvchi, kesim
- payt holi, vositasiz to`diruvchi, kesim
- payt holi, vositasiz to`ldiruvchi, ravish holi

15 **Gul bag`rini nasim tildi - to`kildi, Saboga hikoyat qildi - to`kildi. Falak ishiga boq: bir haftada gul Chiqli, g`unchaladi, kuldi, to`kildi...** Ushbu she'riy parchada nechta yasama fe'l mavjud?

- 1
- 4
- 2
- 3

16 "Alpomish" dostonida qaysi qahramon o`zining quyonchiq kasali borligini bahona qilib, vaziyatdan chiqib ketgan edi?

- Qorajon
- Ko`kaman
- Hakimbek
- Ko`kaldosh

17 Belgisiz qo`llangan qaralmish ishtirok etgan gapni toping.

- Ilm aqlning chirog`i hisoblanadi.
- Bizning qishloq tog` bag`rida.
- Qaralmish belgisiz qo`llanmaydi.
- Daryo labida turib ko`klam quchog`ida tovlanayotgan olmazor chiroyiga suqlanardim.

18 Qaysi ijodkor 60 nafardan ko`proq yoshlarning davlat yo`li bilan Germaniyaga o`qishga yuborilishida Fayzulla Xo`jayev bilan birgalikda tashabbus ko`rsatadi?

- Fitrat
- Cho`lpon
- Abdulla Avloniy
- Oybek

19 Badavlat donishmanddan so`radilar: “Turmushingiz farovon bo`lsa ham, nima uchun sizning xursand bo`lib yurganiningizni ko`rgan emasmiz?” U shunday javob beribdi: “Chunki och-yalang` och yashayotganlarni men hech qachon unutolmayman”. Keltirilgan parchada olmoshning nechta turi ishtirok etgan?

- 4 ta
- 5 ta
- 3 ta
- 2 ta

20 Qaysi gapda o`zlik olmoshi predmetni ko`rsatish uchun qo`llanilgan?

- Biz o`z tuprog`imizni ko`z qorachig`iday asraymiz.
- Soat o`zi ishlab ketdi.
- Rostini aytsam, o`zim ham unchalik yomon bola emasman.
- O`zlik olmoshi predmetni ko`rsatish uchun ishlatilmaydi.

21 O`lmaslikka ishora - o`langa oshiqligim, Saodatga ishora - zamonga oshiqligim, Teranlikka ishora - ummonga oshiqligim, Go`zallikka ishora - bo`stonga oshiqligim - Bahor, ketma mening bog`imdan. (To`ra Sulaymon) Ushbu she'riy parchada fonetik o`zgarish asosida yozilgan yasama so`zlar necha o`rinda hokim qism vazifasini bajargan?

- 6
- 4
- 3
- 5

22 Vatanning bu asl farzandlari o`z orzu-havaslari haqida emas, xalq hayoti, uning ijtimoiy ahvoli yaxshilanishi uchun qayg`urdilar, ularga juda ko`p zug`um qilsalar ham, o`z dunyoqarashlarini o`zgartirmadilar, hatto bu yo`lda o`zlarini qurban qildilar. Ushbu gapdag'i sodda yasama so`zlar sonini toping.

- 3 ta
- 2 ta
- 4 ta
- 5 ta

23 Qaysi javobda jarangli-jarangsizligiga ko`ra farqlanuvchi tovushlar orqali paronim juftlik hosil

qila oladigan so`zlar ko`rsatilgan? 1) afzal; 2) adib; 3) hiyla; 4) qayt; 5) darz; 6) tanbur

- 1, 2, 3, 4, 5
- 1, 2, 4, 5
- 2, 4, 5, 6
- 2, 3, 4, 5, 6

24 Lutfiyning aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan g`azalini aniqlang.

- “Ayoqingg`a tushar har lahza gisu...” g`azali
- “Bo`ldum sanga” radifli g`azali
- “Xoh inon, xoh inonma” radifli g`azali
- “Bu ko`nguldur, bu ko`ngul” radifli g`azali

25 Ayo g`uncha, qizil qonlar aro sen o`zni tark etding, Ayon etgil, nadir sevgi, nadir ul o`zni tark etmoq.
(Rumiy) Berilgan baytda olmoshlar necha o`rinda qo`llangan?

- 4
- 5
- 6
- 7

26 Quyidagi parchada ismlar tarkibida munosabat shakllari necha o`rinda qatnashgan? Hunar beba ho boylikdir. Ilm kelinchakka o`xshaydi: u pinhoniylilikni yoqtiradi. Erinchak, dangasa insonlarga hayotda hech qachon muvaffaqiyat nasib etmaydi. Shu o`gitlarga amal qilishga odatlaning.

- 5
- 8
- 7
- 6

27 “Insonni tug`ish va o`sirish qanchalar qiyin, o`ldirish esa oson”. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- “Me’mor”
- “Dahshat”
- “Oq kema”

“Qochoq”

28 Qaysi javobda tafakkur fe'llari keltirilgan?

- ijod qilmoq, yugurmoq
- iztirob chekmoq, his qilmoq
- kashf qildi, o`ylaydi
- qaltiramoq, isitmalamoq

29 **Mazkur bog`lar Samarqanddagi boshqa bog`lardan o`zining tarovati, ulug`vorligi hamda go`zal nafosati bilan ajralib turar edi.** Ushbu gapda nechta otli so`z birikmasi mavjud?

- 7 ta
- 6 ta
- 5 ta
- 8 ta

30 Qaysi maqolda to`rt o`rinda yasama so`z qo`llangan?

- O`ynab gapisang ham, o`ylab gapir.
- Birlashgan o`zar, birlashmagan to`zar.
- Birni ko`rib, fikr qil, Birni ko`rib, shukur qil.
- Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma!

31 **Nima deysan, ey g`ayur inson? G`iybatlaring qildi meni qon. Sen ham bir kun o`tarsan, inon, Mehr qolur, muhabbat qolur.** (Muhammad Yusuf) Ushbu she'riy parchada fe'lning qaysi mayl shakl(lar)i ishtirok etmagan? 1) xabar mayli; 2) shart mayli; 3) buyruq-istak mayli

- faqat 2
- 1, 3
- 1 ,2, 3
- 2, 3

32 *Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Shuni ta'kidlab o`tish kerakki, biz u yoki bu masaladayuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalg q ilmasdan o`z kuchimiz bilan, o`zaro keng muhokama qilish yo`li bilanbartaraf qiladigan bo`lib qoldik. O`rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo`jalik jihatidan misli ko`rilmagan darajada mustahkamladik.* (Abdulla Qahhor) Berilgan parchadagi yasama so`zlar yuzasidan bildirilgan noto`g`ri hukmni belgilang.

- otdan sifat yasalgan
- sifatdan ot yasalgan
- fe'ldan ot yasalgan
- sifatdan fe'l yasalgan

33 **Bu qasidam senga, xalqim, Oq sut-u tuz hurmati, Erkin o`g`lingman, qabul et, O`zbegin, jon o`zbegin.** Ushbu parchada nechta sodda gap ishtirok etgan?

- 3 ta
- 4 ta
- 2 ta
- 5 ta

34 Qaysi gapda so`roq olmoshiga javob bo`lib keladigan so`z ega vazifasini bajargan? 1) Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o`shaniki bo`ladi. 2) Nimaiki senga zarar keltirsa, o`sha narsani boshqalarga ham ravo ko`rma. 3) Qaysi narsaga o`z mehnating bilan erishsang, sen uchun qadrlidir.

- 1, 3
- faqat 3
- 1, 2, 3
- 2, 3

35 Qaysi javobda bog`lovchi, ko`makchi, yuklamalarga ikkitadan misol keltirilgan?

- atigi, hatto, naq, mabodo, tufayli, uzra
- naq, negaki, sayin, atigi, hamda, uzra
- nahotki, hatto, sayin, ya'ni, tufayli, uzra
- nahotki, basharti, qadar, balki, hatto, faqat

36 *Do`sning senga qanchalik muhabbatি borligini bilmoqchi bo`lsang, uning eng yaxshi ko`rgan narsasini so`ra, shunda hamma narsa ayon bo`ladi. Shu ikkalasidan keyin ham u qavog`ini solmasa, bunday do`sni boshga ko`tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak.* Ushbu matnda fonetik o`zgarishlar soni haqidagi to`g`ri javobni belgilang.

- tovush tushishi-1, tovush ortishi-2, tovush almashishi-1
- tovush tushishi-2, tovush ortishi-2, tovush almashishi-1
- tovush tushishi-1, tovush ortishi-2, tovush almashishi-2

tovush tushishi-2, tovush ortishi-1, tovush almashishi-2

37 Ko`plik shakli **-lar** hurmatni bildirganda shaxslarda egalik qo`shimchasi bilan qanday joylashadi?

barcha shaxslarda oldin egalik keyin ko`plik keladi

I, II shaxslarda oldin egalik keyin ko`plik, III shaxsda oldin ko`plik keyin egalik qo`shimchasi keladi.

I, II shaxslarda oldin ko`plik keyin egalik, III shaxsda oldin egalik keyin ko`plik keladi.

barcha shaxslarda oldin ko`plik keyin egalik keladi

38 Olmoshlar faqat ega, to`ldiruvchi va aniqlovchi vazifasini bajargan gapni aniqlang.

Men sizdan hech narsa talab qiloyatganim yo`q, aksincha, talablaringizni bajarmoqchiman.

Sizni bezovta qilmaslik uchun kecha kelmagan edik, buni sizga aytib qo`ymaganimiz uchun kechirim so`raymiz.

Hindistonda neniki ko`rgan bo`lsangiz, shularning hammasini jam qilib kitob yozishingiz kerak.

U buni bilmasdi, bu ishga qo`l ham urmasdi.

39 Berilgan undalmali gaplarning qaysi birida so`zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilgan?

Arpangizni xom o`ribmanmi, uka.

Opa, urma qalbimga tikan!

Chin uyingda sen qolursan, mehribonim, yaxshi qol!

Gar shul eshitganim bo`lmasa ro`yo – Sen beshik emassan, dorsan, tabiat.

40 “Boburnoma” da keltirilgan quyidagi parchada qaysi shahar tasvirlangan? **“Oshlig`i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo`lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas”**

Farg`ona

Andijon

Samarqand

Buxoro



Attestatsiyaga tayyorlanyapsizmi?

Unda [@muallimaboshlangich kanalini kuzating](https://t.me/muallimaboshlangich_kanalini_kuzating)